



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжасва Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети


Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Чу Бей Бей ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА МАДАНИЙ-ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ ЎРНИ.....	4
2. Yoo In Young ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING SILLA QIROLLIGI BILAN IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI.....	9
3. Umurzok Alibekov USTRUSHONA DENQONCHILIK MADANIYATI TADRIJIY TARAQQIYOTIDA ARXAIK DENQONCHILIK AN'ANALARINING O'RNI.....	14
4. Нилуфар Джураева ЖАДИДЧИЛИК: МИЛЛИЙ МАОРИФ ТИЗИМИГА АЁЛЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ МАСАЛАСИ.....	23
5. Обиджан Мадаминов ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО ИМИЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ.....	31
6. Моҳира Матназарова ҚАДИМГИ ХОРАЗМ КЎЧМАНЧИ ЧОРВАДОРЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШУВИ МАСАЛАЛАРИ.....	36
7. Сапарбой Наврузов АКАДЕМИК РАССОМ ДМИТРИЕВ КАВКАЗСКИЙНИНГ ХИВА ТААССУРОТЛАРИ.....	41
8. Ismoil Nurmetov XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI FAOLIYATI (Xorazm viloyati misolida).....	50
9. Севара Пулатова МАДАНИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА.....	56
10. Sardor Umarov BIRLASHGAN GERMANIYA: IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR.....	62
11. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ СЎҒДНИНГ МИНТАҚАВИЙ МИГРАЦИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	69
12. Одил Эргашев ҚОПЧИҒОЙ УСТАХОНАСИ МУСТЪЕ ДАВРИ КОМПЛЕКСИНИНГ МАДАНИЙ-ДАВРИЙ ХОСЛИГИ ҲАҚИДА.....	76



Sardor Umarov,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti

BIRLASHGAN GERMANIYA: IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLAR

For citation: Sardar Umarov. REUNIFIED GERMANY: SOCIO-ECONOMIC PROBLEMS. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 2, pp.62-68

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10643349>

ANNOTATSIYA

Ikkiga bo'lingan Germaniya 1990-yilda qaytadan yana yagona davlatga birlashdi. Birlashuv natijasida Sharqiy va G'arbiy Germaniya yerlarida farqlar yaqqol namoyon bo'la boshladi. Mazkur maqolada birlashuvdan so'ng mamlakatni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ochib berilgan. Shu bilan birga mamlakatni sharqiy yerlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun amalga oshirish lozim bo'lgan masalalar ochib berilgan. Shuningdek, nemis davlatlarining birlashuvidan so'ng yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarga qaramasdan, "birlashuv kansleri" Gelmут Kol tomonidan mamlakatni qayta tiklash uchun harakat amalga oshirgani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Gelmут Kol, GDR, GFR, Brandenburg darvozasi, Berlin, Bonn, partiya.

Сардор Умаров,

Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова

ОБЪЕДИНЕННАЯ ГЕРМАНИЯ: СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

Разделенная Германия воссоединилась в 1990 году. В результате объединения стали ясно проявляться различия между Восточной и Западной Германией. В данной статье раскрыты социально-экономические проблемы, охватившие страну после объединения. При этом выявлены вопросы, которые необходимо реализовать для социально-экономического развития восточных частей страны. Также, несмотря на сложную экономическую и социальную ситуацию, возникшую после объединения немецких государств, выяснилось, что «канцлер объединения» Гельмут Коль предпринял попытку восстановить страну.

Ключевые слова: Гельмут Коль, ГДР, ФРГ, Бранденбургские ворота, Берлин, Бонн, партия.

Sardor Umarov,
Samarkand State University
named after Sharof Rashidov

REUNIFIED GERMANY: SOCIO-ECONOMIC PROBLEMS

ABSTRACT

Divided Germany was reunited in 1990. As a result of unification, the differences between East and West Germany became clear. This article reveals the socio-economic problems that engulfed the country after unification. At the same time, issues that need to be implemented for the socio-economic development of the eastern parts of the country have been identified. In addition, despite the difficult economic and social situation that arose after the unification of the German states, it turned out that the “Unification Chancellor” Helmut Kohl attempted to restore the country.

Index Terms: Helmut Kohl, GDR, FRG, Brandenburg Gate, Berlin, Bonn, party.

1. Dolzarbligi:

GDR tarixining oxirgi davri “Xonekker davri” sifatida mashhur. Erix Xonekker sharqiy german rejimini 1971-yildan boshlab boshqargan. Uning boshqaruvi yillari jamiyat ustidan yanada qattiqroq mafkuraviy bosimning kuchayishi bilan bir qatorda faol ijtimoiy siyosatning saqlab qolinishi va sharqiy nemislar hayot darajasining barqaror ko'tarilishi bilan belgilandi. E.Xonekker 1980-yillardan boshlab GFRga nisbatan murosasiz yo'nalishdan nisbatan konstruktiv dialogga o'ta boshladi. 1981-yil E.Xonekker va GFR kansleri G.Smidt o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuvda birinchi marta Yevropa qit'asida xafsizlikni ta'minlashda GFR va GDRning “umumiy javobgarligi” qayd etilgan edi. Gelmut Kol hukumati esa o'z tomonidan GDRni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qator qadamlarni tashlay boshladi. 1983-1984-yillarda ikki nemis davlati o'rtasida 1,9 mlrd markalik kreditlarni taqdim etish to'g'risida kelishuvlar imzolandi. Nemis hukumatlarining sukutli roziligi bilan ikki mamlakat universitetlari, shahar jamoalari, ijodiy ziyolilar guruhi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatila boshlandi [8, C.176].

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqot davomida sintez, abstraktlashtirish, tarixiylik, mantiqiylik usullaridan foydalanildi. Sintez (ajratib olish) – analiz tufayli ajratilgan bo'laklar, tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro birlashtirib, ularni bir butun holga keltirishdir. Sintez metodi tadqiqotchiga butunning bo'laklari, qismlari, tomonlari, elementlari o'rtasidagi va ularning butun bilan bo'lgan aloqa va bog'lanishlarini bilishga imkon beradi. Abstraktlashtirish – tekshirilayotgan ob'ektlarning xususiy, unchalik e'tiborga molik bo'lmagan jihatlarini soqit qilib, uning mohiyatini ochib beruvchi xossalarni ajratish va o'rganishdir. Tarixiylik – bu o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lishi, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir. Tarixiylik deganda, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning konkret sharoitda paydo bo'lishi, yashashi, rivojlanish va yemirilish yoki yo'q bo'lishidan iborat jarayonning tafakkurda ifodalanishi tushuniladi. Mantiqiylik esa, ana shu tarixiylikning tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqartirilgan, tasodiflardan tozalangan abstrakt konkretlik shaklidagi ifodalanishidir. Mantiqiylikda tarixiylikning eng zarur va eng asosiy tomonlari, xususiyatlari, qonuniyatlari ifodalanadi. Tarixiylik va mantiqiylik o'zaro chambarchas bog'liq.

Germaniya birlashganidan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va integratsiya jarayonining qarama-qarshiliklari M.V.Xorolskayaning “Германия после объединения: политические проблемы и противоречия интеграционного процесса” nomli tadqiqot ishida tahlil qilingan. Ingliz zaban muallif Andreas Staabning “Separation After Unification? The Crisis of National Identity in Eastern Germany” nomli dissertatsiyasida birlashuvdan keyingi ijtimoiy muammolar ochib berilgan. В.К.Вогдановnaning “Приоритеты внешней политики Германии до и после объединения (1945-2005 гг.)” nomli dissertatsiyasida esa birlashishdan oldingi va keying Germaniya tashqi siyosati masalasi taqdid etilgan. X.Klyuterning “Объединение Германий и его

воздействие на экономику Восточных земель” nomli maqolasida Germaniyaning birlashishi va uning Sharq mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri masalalari ochib berilgan. D.T.Otabayeva, M.B.Kenzhebekova va E.A.Musayevalar tomonidan yozilgan “Экономическое развитие объединенной Германии как модель социально-рыночной экономики” nomli maqolasida birlashgan Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi masalalari taqdid qilingan.

3. Tadqiqot natijalari:

Shubhasiz, G'arbiy va Sharqiy nemis davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning faollashuvida rasmiy Moskva siyosatining evolyutsiyasi hal qiluvchi rol o'ynadi. 1985-yil bahorida SSSRning yangi rahbari M.S.Gorbachyov tomonidan e'lon qilingan “Qayta qurish va oshkoralik dasturi” german masalasida sovet siyosatining yangi bosqichini ham boshlab berdi. U GDRning ichki ishlariga aralashishni to'xtatdi, Sharqiy Germaniyaning manfaatlaridan kelib chiqib o'z harbiy doktrinasini qayta qurdi, uning hududidan ommaviy qirg'in qurollarini to'liq olib chiqdi, SS-20 raketalarini yo'q qildi, Yevropa qit'asida Anlantikadan Uralga qadar bo'lgan hududlarda qurolli kuchlar va qurollarni o'zaro qisqartirish bo'yicha olib borilgan muzokaralarda nisbatan haqqoniy konstruktiv mavqeni egallay boshladi.

Gelmut Kol boshchiligidagi Xristian-liberal hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan “kichik qadamlar” siyosati samaradorligining keskin oshishi ham aynan Gorbachyov “qayta qurish”i davriga to'g'ri keldi. Rossiyalik tadqiqotchi Ye.B.Tsedilina, “Kol hukumati Sharqiy german rejimini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash evaziga ijtimoiy aloqalarni doimiy ravishda kengaytirib bordi. Bu ichki german chegaralarining ikkala tomonidan yashayotgan nemislarda yagona millatga mansublik tuyg'ularini kuchaytirdi, sharqiy nemislarda esa G'arb qiymatlari tizimiga nisbatan intilishni ta'minlab bordi”, deb ta'kidlagan edi [10].

Biroq tez orada GDRda yana siyosiy qatag'onlar avj ola boshladi. Xonekker va uning atrofida SSSRda boshlangan “qayta qurish” jarayonlariga ishonchsilik bilan munosabatda bo'ldilar va o'z mamlakatlarida o'zgacha fikrlovchilarni keskin ta'qib qila boshladilar [8, C.178]. Bu davrga kelib Sharqiy Germaniyada yuzaga kelgan muxolifatlik harakati asosan huquqni himoya qiluvchilar va mavjud tartiblarni tanqid qiluvchilardan iborat bo'lib, xristian cherkovi ularga o'ziga xos “boshpana”ni ta'minlagan edi. Muxolifatning qiziqish doiralari inson huquqlarini himoya qilish, tinchlikni ta'minlash, qurolsizlanish va atrof muhitni himoya qilish muammolari qamrab olgan edi. Ularning dasturlarida zarur islohotlarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lsada, GDRning mavjudligi haqidagi masala biron marta ham ko'tarilmagan edi. 1989-yilning o'rtalariga kelib muxolifatchi guruhlarining saflarida atigi 500 kishi bo'lishiga qaramasdan, ularning kayfiyatini GDRdagi 100 minglab kishilar bo'lishgan edi [10].

GDR rahbariyati o'z fuqarolarining sadoqatini populistik tadbirlar bilan saqlab qolishga harakat qildi. Tashqi kreditlarning asosiy qismi G'arbdan ommaviy iste'mol mahsulotlari, oziq-ovqat, shaxsiy foydalanish uchun avtoulavlar sotib olishga sarflandi. Biroq bu faravonlikning bahosi davlat qarzlarning keskin oshib borishi bo'ldi. Agar 1971-yilda GDRning G'arb davlatlaridan qarzi 3,5 mlrd markani tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilga kelib u 10 barobar ko'paydi [8, C.202]. Shuningdek, bu paytga kelib nemis davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi farq ko'z ilg'amas darajaga yetib bordi. O'sha vaqtdagi GDR iqtisodiyoti davlat-monopolistik tizimi imkoniyatlarining yoqasiga kelib qolgan bo'lsa, GFR iqtisodiyoti asoslangan xalq-xo'jalik kompleksi modeli global interyerda yanada jozibaliroq ko'rinishga boshladi.

Muammolarning yechimi GDRning 40 yilligini nishonlash kunlariga to'g'ri keldi. SSSR rahbari M.S.Gorbachyovning 1989-yil 6-oktabrda Berlinga tashrifi odatdagidek, “do'stano” vaziyatda o'tgan bo'lsada, GBSP (CEII) dagi ichki partiyaviy muxolifatga ishonch bag'ishladi, 7-8-oktabr kunlari Berlinda bo'lib o'tgan ommaviy namoyishlar esa davlat rahbariyatini siyosiy xatolarda ayblashga bahona bo'ldi. 1989-yil 18-oktabrida bo'lib o'tgan GBSPning IX Plenumida E.Xonekker egallab turgan barcha lavozimlaridan ozod etildi. Uning o'rniga Egon Krents saylandi. Biroq GDRning yangi rahbari vaziyatni o'z nazoratida saqlab qola olmadi [8, C.203].

Voqealarning inqilobiy tus olishida sovet rahbariyatining GDRdagi 1989-yil oktabr o'zgarishlarining ushbu mamlakat xalqining ichki qarori deb hisoblashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Kremldagilarning birontasi ham Sharqiy Berlin ko'chalariga sovet tanklarini olib chiqish

haqida o'ylab ko'rmadi ham [9]. Bu inqilob german masalasi tarixidagi hal qiluvchi bosqichni boshlab berdi. Rasmiy Moskvaning Berlin devorining keyingi taqdiriga nisbatan munosabatini uning 1989-yil oktabr inqilobiga nisbatan xushyorona va realistik yondashuvining mantiqiy davomi deb hisoblash mumkin. GDR rahbariyatining nemis davlatlari o'rtasidagi chegara tartibini qanday qilib muvofiqlashtirish to'g'risidagi so'roviga javoban, SSST TIVdan Berlindagi sovet elchisi V.I.Kochemasovga «... do'stlarning e'tiboriga yetkazilsinki, G'arbiy Berlin va GFR bilan chegaralardagi tartib "GDRning ichki ishidir"», degan ko'rsatma keldi. 1989-yil 9-noyabrda esa GDR rahbariyati a'zosi G.Shabovskiy nemis davlatlari o'rtasida "chegaralar mavjud emas"ligi to'g'risida bayonot berdi [9]. Shu tariqa 28 yil davomida G'arb va Sharq o'rtasidagi "temir parda"ning amaldagi ramzi bo'lgan Berlin devori quladi.

1989-yil 9-noyabrda Markaziy komitet Germaniya Federativ Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10-noyabrdan kechikmasdan ikki davlat o'rtasidagi chegarani ochilishi haqidagi xabarni tasdiqladi. 9-noyabr kuni soat 18:00 da bo'lgan matbuot konferensiyasida bu haqida aytili. Matbuotda soat 19:00 da chegarani ochilishi e'lon qilindi. Chegara ochilib, shimoliy Berlin aholisi g'arbga oqib kirdi. Berlin yana yagona shaharga aylandi [2, P.384]. 1989-yil 9-noyabrda xalq ommasi Berlin shahrini ikki qismga ajratib turgan beton devorni buzib tashladi. 1990-yil 1-iyuldan boshlab Sharqiy va G'arbiy Germaniya o'rtasidagi chegara nazorati olib tashlandi. Berlin devori davri nihoyasiga yetdi [1, P.223]. Devor buzilgandan keyingi bir hafta ichida o'zlari uchun taqiqlangan hududni ko'rish uchun to'qqiz million aholi – Sharqiy Germaniya aholisining yarmidan ko'pi G'arbga o'tishdi [4, P.235].

Berlin devori qulaganidan keyin G.Kol o'zining o'n bandan iborat Germaniya tarqoqligiga barham beruvchi, federal davlat huquqi asosida yuzaga keladigan konfederativ tuzilmasini Bundestagga ta'qdim qildi. Bundan tashqari Germaniya G'arbning barcha davlatlari bilan yaqinlasha boshladi. Qo'shma Shtatlar Germaniya birlashuvini ma'qullab, AQSh prezidenti Jorj Bush va kansler G.Kol o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatildi [3, P.28].

Germaniyaning birlashuvi mamlakatning hududiy va demografik jihatdan kengayishiga, uning siyosiy va iqtisodiy salohiyatining o'sishiga olib keldi, GFRning Yevropada va dunyoda sifat jihatdan yangi mavqega ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Uzoq vaqt davomida dolzarb bo'lib kelgan german masalasi shu tariqa siyosiy va huquqiy jihatdan yopildi. Germaniya tarixining yangi, yagona, barqaror, iqtisodiy jihatdan qudratli va xalqaro munosabatlarda ta'siri kuchli GFRning rivojlanish davri boshlandi.

"Yangi Germaniya" to'qqizta davlat – shimolda Daniya, g'arbda Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Fransiya, janubda Shvetsariya va Avstriya, sharqda Chex Respublikasi va Polsha bilan chegaradosh bo'ldi. Uning hududi 356,85 ming kv.km ni tashkil etib, G'arbiy Yevropada Fransiya va Ispaniyadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Birlashuvdan so'ng mamlakat aholisi 82 mln kishini tashkil etdi [7, C.337].

Beshta sharqiy german yerlarida ularning tarixiy bayroqlari va gerblari qayta tiklandi. Hozirda Germaniya tarkibiga 16 yer kiradi. 1990-yil 3-oktabrdan boshlab birlik va erkinlikning timsoli bo'lgan qora-qizil-oltinrang bayroq yagona Germaniyaning bayrog'i hisoblanadi. Me'moriy yodgorlik – Brandenburg darvozasiga esa milliy ramz maqomi berildi. U Germaniyaning tarqoqlik davri va uni yengib o'tgan 1989-1990-yillardagi voqealardan estalik bo'lib qoldi.

1990-yillarning boshlarida mamlakatning konstitutsiyaviy tuzilishini isloh qilish bo'yicha ko'plab munozaralar olib borildi va ularning natijasi o'laroq, 1992-yilda GFR Asosiy qonunining 23 va 24-moddalari yangi tahrirda qabul qilindi. 1991-yil 20-iyunda GFR Bundestagida Germaniya poytaxti masalasida debatlar bo'lib o'tdi. Germaniyaning birlashuvi to'g'risidagi shartnomaning 2-moddasida "yangi Germaniyaning poytaxti Berlin", deb ko'rsatilganligiga qaramasdan, bu qarorga ko'pchilik qarshi chiqdi. Ovoz berish natijalariga ko'ra, yangi Germaniyaning poytaxti Berlin bo'lishiga va GFR prezidenti va Bundestagi u yerda faoliyat olib borishiga qaror qilindi. Bundesrat (GFR Davlat kengashi) esa Bonnda qoladigan bo'ldi. 1991-yil dekabrda Kol hukumati federal kansler devonxonasi, hukumat matbuoti va axborot xizmati, shuningdek, sakkizta vazirlikning Berlinga ko'chib o'tishi to'g'risida qaror qabul qildi. Qolgan yettita vazirlik Bonnda faoliyat olib

boradigan bo'ldi. 1998-yilda mamlakatning siyosiy markazidan uzilib qolmaslik uchun Bundesrat Berlinga ko'chib o'tishga qaror qildi [7, C.337].

Birlashuvdan so'ng GFR partiyaviy tizimi ham o'ziga xos o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Gelmut Kol yetakchiligidagi Xristian-demokratik ittifoq Sharqiy Germaniya Xristian-demokratlari va Dehqonlar partiyasi bilan birlashdi. U bundan faqat yutdi, chunki qo'shilish natijasida o'z a'zolari sonini ko'paytirdi, tayyor tashkiliy tuzilmalarga va Sharqdagi saylovchilarning bir qismiga ega bo'ldi. 1998-yilga kelib esa XDI a'zolari soni 670 ming kishini tashkil etdi [7, C.338].

“Yangi Germaniya” Bundestagiga birinchi saylovlar 1990-yil 2-dekabrda bo'lib o'tdi va unda saylovchilarning 77,8 foizi ishtirok etdi. Gelmut Kol boshchiligidagi XDI/XSI bloki birlashuv masalasidagi faol siyosati tufayli saylovlarda ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi. Ular uchun saylovda qatnashganlarning 44,1 foizi ovoz berdi va Bundestagda 319 ta o'ringa ega bo'ldilar. ODP 11 foiz ovoz to'pladi va Bundestagda 79 ta o'ringa ega bo'ldi. Bu g'alaba uchun liberallar mamlakatning birlashuvi uchun juda katta xissa qo'shgan Gensherdan minnatdor bo'lishlari lozim. Hukmron koalitsiya partiyalari tomonidan yig'ilgan ovozlar yig'indisi esa ularning mutlaq g'alabasi ta'minladi. Sotsial-demokratlar uchun esa saylovchilarning 33,5 foizi ovoz berdi va ular Bundestagda 239 ta mandatga ega bo'ldi. Yangi yerlardagi saylovchilarning ishonchini qozonishga harakat qilgan partiyalarning natijalari unchalik yuqori bo'lmadi. Sobiq GDR huquq himoyachilari bloki parlament saylovlarida “90 Ittifoqi” sifatida qatnashdi va 5,2 foiz ovozga ega bo'ldi. “Yashillar” partiyasi bu davrda chuqur inqirozni boshdan kechirayotgan bo'lib, Bundestagda o'ringa ega bo'lish yetarli darajada ovoz to'play olmadi. Advokat G.Gizi yetakchiligidagi DSP (ПДС) sharqiy german saylovchilarining 10 foiz ovozini qo'lga kiritdi va Bundestagda 17 ta deputatlik o'rniga ega bo'ldi [7, C.339].

“Yangi Germaniya” Bundestagining birinchi majlisi 1990-yil 20-dekabrda eski deputat, GSDPning faxriy raisi V.Brandt raisligida ish boshladi. 1991-yil yanvarida deputatlar Gelmut Kolni yangi muddatga GFR kansleri etib sayladilar. Uning hukumati mushku vazifalarni – siyosiy qayta qurishni amalga oshirish, sobiq GDRda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni o'zgartirish hamda millatning birligiga erishish kabilarni hal etishi, shuningdek, bir vaqtning o'zida Yevropa integratsiya bilan bog'liq muammolarni yechishi va yagona Germaniyaning yangi xalqaro munosabatlardagi rolini aniqlashtirishi lozim edi [7, C.340].

Germaniyaning yagona davlatga birlashuvi nemis xalqida eng ezgu umidlarni uyg'otishi bilan birga boshqa mamlakatlarda yashirin xavotirlarning chiqishiga olib keldi. Hatto Fransiya va Buyuk Britaniya rahbarlari ham maxfiy diplomatiya usullari yordamida bu jarayonni to'xtatishga harakat qildilar. Bu vaqtga kelib Germaniyaning birlashuvi Yevropa qit'asining markazida yangi “o'ta kuchli” davlatning paydo bo'lishiga olib keladi, degan firklar keng tarqalgan edi. Biroq, haqiqatda ikki nemis davlatining birlashuvi ko'pchilik taxmin qilganidek, bir xil oqibatlariga olib kelmadi [8, C.204].

Birlashuvdan so'ng Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi o'zining mashhur barqarorligini yo'qota boshladi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini tuzilmaviy qayta qurishishlab chiqarishning keskin pasayishini keltirib chiqardi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida “yangi yerlar”dagi ishchi o'rinlarining 50 foizi tugatildi. Natijada ishsizlik oshib bordi va uning yashirin shakllarini ham hisobga olganda 30 fozini tashkil etdi. 1990-yil iyulda GFR hukumati tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti esa sharqiy nemislar uchun haqiqiy “shok terapiyasi” bo'ldi. Buning natijasida Sharqiy Germaniya mahsulot bozori larzaga tushdi, bu yerlarda aholining yashash darajasi esa ahamiyatli darajada pasaya boshladi [8, C.205].

Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini isloh qilishda qo'llanilgan asosiy usullar sifatida bu yerda xususiylashtirish dasturlarining amalga oshirilishini va bozor menejmentining joriy etilishini ko'rsatish mumkin. Sharqiy Germaniyada xususiylashtirishni amalga oshirish uchun GFRning yirik xoldinglaridan birining bazasida Berlin Vasiylik boshqarmasi tashkil etilgan va uning ixtiyoriga (ishonchli shaxs sifatida) GDRdagi 14 mingta davlat korxonasi topshirilgan edi. Biroq sotuvga qo'yilgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligining nihoyatda pastligi sarmoyadorlarni jalb etishda asosiy to'siqlardan biriga aylandi. Bir yil davomida vasiylik kengashi mingga yaqin nisbatan samarador korxonalarni xususiylashtirishga muvaffaq bo'ldi, biroq davlat byudjetiga

bundan bor-yo'g'i 4 mlrd marka tushdi, xolos. Mutlaq boshqa ishlab chiqarish madaniyati, texnologik qoloqlik, an'anaviy iste'mol bozorlarining notashkiliyiligi sharoitida iqtisodiyotga menejmentning eng yangi tamoyillarining joriy etilishi ham kutilgan natijalarni bermadi. Bularning barchasi GFR hukumatini nafaqat sharqiy yerlarni rivojlantirish bo'yicha barcha dasturlarni saqlab qolish, balki ularni moliyalashtirishni oshirib borishga majbur qildi. Jumladan, federal transfertlar 1991-yilda 140 mlrd, 1992-yilda 152 mlrd, 1993-yil 182 mlrd markani tashkil etdi. O'sha davr o'lchovlari bilan qaraganda, hatto gullab-yashnayotgan iqtisodiyotlar uchun ham bu ko'rsatkichlar og'ir yuk edi. GFR esa bu davrda yangi iqtisodiy inqiroz chizig'ini bosib o'tayotgan edi [8, C.205].

1990-yillarning boshlaridagi iqtisodiy pasayish barcha G'arb mamlakatlari uchun umumiy bo'lsada, Germaniyada u sharqiy yerlarni isloh qilish uchun amalga oshirilgan xarajatlar, shuningdek, g'arbiy german yerlarining o'z muammolari ta'sirida biroq cho'zilib ketdi. Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun Kol hukumati butun nemis millatini mumkin bo'lgan darajada iqtisod qilishga chaqirdi. Soliqlar mislsiz darajada oshirilib, umumiy ish haqining deyarli yarmini tashkil etdi, shuningdek, ijtimoiy xarajatlarga yo'naltiriladigan davlat xarajatlari keskin pasaytirildi. Iqtisodiy inqirozning eng yuqori nuqtasi 1993-yilga to'g'ri kelib, mashinasozlikning yetakchi sohalarida ishlab chiqarishning pasayishi 20-25 foizni tashkil etdi. 1994-yildan iqtisodiy konyukturaning jonlanishi kuzatila boshlanganiga qaramasdan, nemis iqtisodiyoti 1990-yillarning oxiriga kelibgina yuqori rivojlanish sur'atlariga chiqa oldi. Sarmoyaviy faollik va ichki hamyonbop ehtiyojning turg'unligi saqlanib qoldi. GFRning davlat qarzlari ham o'sib bordi. Agar 1990-yilda ular YIMning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilga kelib 60 foizdan oshib ketdi [8, C.205].

4. Xulosalar:

Nemis davlatlarining birlashuvidan so'ng yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarga qaramasdan, "birlashuv kansleri" Gelmuts Kol uzoq vaqt davomida yuqori siyosiy reytingini saqlab qoldi. 1994-yilda bo'lib o'tgan navbatdagi parlament saylovlarida XDI ni saylovchilarning 34,2, XSI ni esa 7,3 foizi qo'llab-quvvatladi. Bu paytga kelib mafkuraviy inqirozni boshdan kechirayotgan ODP 6,9 foiz ovoz oldi. Natijada partiya raisi K.Kinkel o'z lavozimini topshirishga majbur bo'ldi. GFR tashqi ishlar vaziri Gensher ham faol siyosiy faoliyatdan ketdi. Saylovlarda 36,4 foiz ovoz olgan GSDP o'z mavqeyini mustahkamlab oldi. Ekologchilar va huquq himoyachilari koalitsiyasi "90 Ittifoqi – Yashillar" 7,3 foiz ovoz to'pladi [8, C.206].

Birlashuvdan so'ng Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi o'zining mashhur barqarorligini yo'qota boshladi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotini tuzilmaviy qayta qurish ishlab chiqarishning keskin pasayishini keltirib chiqardi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida "yangi yerlar"dagi ishchi o'rinlarining 50 foizi tugatildi. Natijada ishsizlik oshib bordi va uning yashirin shakllarini ham hisobga olganda 30 foizni tashkil etdi.

Germaniyaning birlashuvi mamlakatning hududiy va demografik jihatdan kengayishiga, uning siyosiy va iqtisodiy salohiyatining o'sishiga olib keldi, GFRning Yevropada va dunyoda sifat jihatdan yangi mavqega ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Coy, Jason Philip. A brief history of Germany. Facts on File. USA. Inc. An imprint of Info Base Publishing 2010. - P.298.
2. Kitchen, Martin. A history of modern Germany, 1800–2000. USA, Blackwell publishing, 2006. - P.484.
3. Murat Gül. German foreign policy: change and continuity (1949-2000). Middle East Technical University. 2003. - P.228.
4. Mustafa, Sam A. Germany in the modern world: a new history. USA. Published by Rowman & Littlefield Publishers, Inc. 2011. - P.335.
5. Европе: международно-политические аспекты: Сб. статей. М., 1991.- С. 235 (Europe: international political aspects: Sat. articles)
6. Германия. Вызовы XXI века. Под редакцией В.Б.Белова. – М.: «Весь мир», 2009. - С.26. (Germany. Challenges of the 21st century. Edited by V.B. Belov.)

7. История Германии: учебное пособие: в 3 тт. / Под общ. ред. Б.Бонвеча, Ю.В.Галактионова. М.: КДУ, 2008 – Т.2: - С. 337 (History of Germany: textbook: in 3 volumes. / Under general ed. B. Bonvecha, Yu.V. Galaktionova)
8. Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время в вопросах и ответах: учеб. пособие. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. - С. 258. (Ponomarev M.V. History of European and American countries in modern times in questions and answers: textbook.)
9. Фалин В.М. Есть стены крепче Берлинской // Комсомольская правда. 1994. 25—27 января. (Falin V.M. There are stronger walls than Berlin // Komsomolskaya Pravda. 1994. January 25-27)
10. Цедилина Е.В. Объединение Германии: история и итоги одной революции // Перемены в Восточной Европе: международно-политические аспекты. Сб статей. М., 1991. (Tsedilina E.V. Unification of Germany: history and results of one revolution // Changes in Eastern Europe: international political aspects. Sat articles.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000